

HAMID OLIMJON SHE'RIY DOSTONLARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Sabohat ESHBOYEVA,

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti 401-guruh talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15878554>

Annotatsiya: Ushbu maqolada 30-yillarda o'zbek adabiyotining yetuk vakili Hamid Olimjonning ilmiy, adabiy va ijodiy faoliyati har tomonlama tahlil etiladi. Shuningdek, uning jahon adabiyotiga oid maqolalarida turli millat adiblari ijodining xususiyatlari tahlil qilinishi ko'rsatib beriladi. Shoirning "Zaynab va Omon" hamda xalq ertaklari ruhidan ilhomlangan "Oyguil bilan Baxtiyor" va "Semurg" ertak-dostonlaridagi personajlar xarakteri orqali erkin sevgi, inson hurligi, xalq irodasi ustuvorligi kabi g'oyalar ta'sirchan ifodalangan.

Kalit so'zlar: Hamid Olimjon, 30-yillar ijodi, xalq og'zaki ijodi, o'zbek mumtoz adabiyoti, liro-epik asarlar, folklor, "Zaynab va Omon", "Oyguil bilan Baxtiyor", "Semurg" ertak-dostonlari, sevgi lirikasining poetikasi, milliy qadriyatlar.

Аннотация: В статье всесторонне анализируется научная, литературная и творческая деятельность Хамида Олимджона — видного представителя узбекской литературы 1930-х годов. В его статьях о мировой литературе содержится также анализ особенностей творчества писателей разных национальностей.

В лирико-эпических произведениях поэта «Зейнаб и Амон», «Ойгуль и Бахтиёр» и «Семург», вдохновлённые духом народных сказок, эффектно выражают такие идеи, как свободная любовь, свобода человека, главенство воли народа.

Ключевые слова: Хамид Олимджон, творчество 1930-х годов, устное народное творчество, узбекская классическая литература, лирико-эпические произведения, фольклор, сказки и эпосы «Зайнаб и Амон», «Ойгул билан Бахтиёр», «Семург», поэтика любовной лирики, национальные ценности.

Annotation: This article comprehensively analyzes the scientific, literary and creative activities of Hamid Olimjon, a prominent representative of Uzbek literature in the 1930s. It also shows the analysis of the features of the work of writers of different nationalities in his articles on world literature. The poet's lyrical-epic works demonstrate "Zaynab and Amon" and "Oyguil bilan Bakhtiyor" and "Semurg", inspired by the spirit of folk tales, effectively express ideas such as free love, human freedom, and the primacy of the will of the people.

Keywords: Hamid Olimjon, creativity of the 1930s, folk oral literature, Uzbek classical literature, lyrical-epic works, folklore, fairy tales and epics "Zaynab and Amon", "Oyguil bilan Bakhtiyor", "Semurg", poetics of love lyrics, national values.

Hamid Olimjon sinchkov tadqiqotchi va iste'dodli olim sifatida 30-yillarda O'zbek mumtoz adabiyotini va xalq og'zaki ijodini tadqiq etishga ham alohida e'tibor berdi. «O'zbek xalqining ulug' shoiri Navoiy», «Navoiy va zam onam iz», «Mardlik, muhabbat va do'stlik dostoni», «Farhod va Shirin» haqida», «O'zbek xalqining o'lmas shoiri haqida», «Muhammad Amin Muqimiy» kabi jiddiy maqolalar yozdi. Bu

maqolalarda mumtoz adabiyot va xalq og‘zaki ijodining bebaho boyliklari tahlil etilib, milliy qadriyatlarimizning o‘ziga xos xususiyatlari va ibratli tomonlari adolatli ravishda ochib berilgan. Hamid Olimjon jahon adabiyotini o‘rganish va tashviq etish sohasida ham ancha ishlar qilgan.

Uning «V.V. Mayakovskiy haqida», «Tolstoy va O‘zbek xalqi», «Salom, Pushkin», «Buyuk san‘atkor», «Jam bul va xalq», «Taras Shevchenko» kabi maqolalari turli millat adiblari ijodini teran bilishi va tahlil qila olishini namoyon etdi. Ularda o‘sha mashhur yozuvchilar ijodining asosiy xususiyatlari va ahamiyati ko‘rsatib berilgan.

XX asrning 30-yillarida Hamid Olimjon badiiy asarlarining mavzu doirasi kengaydi, badiiy saviyasi ko‘p darajada ortdi. Bu o‘shish avvalo «Olov sochlar» (1931), «o‘lim yovga», «Poyga» (1932) to‘plamlarida ko‘rindi. Bu kitoblarga kirgan «Sharq», «O‘zbekiston», «Siyob», «Baxtlar vodiysi» singari she‘rlarida Hamid Olimjon yangi hayot hodisalari tufayli tug‘ilgan tuyg‘ularni ko‘tarinkilik va jo‘shqinlik bilan kuyladi. 30-yillarning ikkinchi yarmida Hamid Olimjonning «Daryo kechasi» (1936), «Chirchiq bo‘ylarida» (1937), «O‘lka» (1939), «Baxt» (1940) to‘plamlari maydonga keldi. Bu to‘plamlarga kiritilgan she‘riy asarlarning aksariyati shoir ijodida rang-barang voqelik tasviri tobora chuqurlashib, go‘zallashib, obrazlilik va ta‘sirchanlik kuchaya borganligidan dalolat beradi.

Hamid Olimjonning «Har yurakning bir bahori bor», «Xayoling-la o‘tadi tunlar», «Savol», «Ishim bordur o‘sha ohuda», «Xayolim da bo‘lding uzun kun», «Sog‘inganda», «Ofeliyaning o‘limi» kabi go‘zal she‘rlarida hayot va o‘lim, baxt va baxtsizlik, yoshlik va vafodorlik, sevgi-muhabbat bilan bog‘liq bomagan qalb tug‘yonlari katta mahorat bilan kuylanadi. «Ofeliyaning o‘limi» she‘ri uzoq o‘tmishni aks ettiruvchi «Gamlet» (V. Shekspir) fojiasi ta‘sirida yozilgan. Bu she‘rda pok sevgi, samimiy insoniy muhabbat madh etiladi. Uni beg‘ubor sevgi yo‘lida qurbon bo‘lgan yosh yuraklarga qo‘yilgan she‘riy haykal desa bo‘ladi. She‘rning hamma unsurlari birdek go‘zal, malaksiymo Ofeliyadek pokiza va jozibador:

Javob berib ko‘rchi, nomard tabiat, Bunchalik go‘zalni nechun yaratding?!
O‘zing gunohkorsan, osiysan behad, Nechun yaratdingu o‘tlarga otding?

«Ofeliyaning o‘limi» tasvirning teran ligi, obrazning yorqinligi va jozibadorligi bilan she‘riyatimizda yangilik bo‘ldi. Hamid Olimjonning bu davr she‘riyatida jonajon O‘zbekiston va O‘zbek xalqi obrazi o‘zining butun borlig‘i va tarovati bilan namoyon bo‘ldi. Shoir «O‘zbekiston» she‘rida aniq detallar, rango-rang tasvir vositalari yordamida quyoshli diyorumizning yaxlit poetik obrazini yaratib, asar g‘oyasini she‘rning mag‘iz-mag‘iziga singdirib yubordi. Mavzuni yoritishda tabiat manzaralari tasviridan mohirona foydalandi. Darhaqiqat, «O‘zbekiston» she‘ri peyzaj

lirikasining nodir namunasi bo‘lib, unda tabiat manzarasi asar g‘oyasini badiiy yo‘l bilan ochishga to‘laligicha xizmat qilgan:

O‘xshashi yo‘q bu go‘zal bo‘ston,
Dostonlarda bitgan guliston,
O‘zbekiston deya atalur,
Uni sevib el tilga olur,
Chiroylidur go‘yo yosh kelin,
Ikki daryo yuvar kokilin.
Qorli tog‘lar turar boshida,
Gul vodiylar yashnar qoshida.
Chor atrofga yoyganda gilam,
Aslo yo‘qdir bundayin ko‘klam...
Bu shundayin ajib diyordir¹.

Shoir ona diyorumiz obrazini ravon va quyma misralar vositasida hayotiy va yorqin qilib gavdalantirgan. Bu she’rda misralarnigina emas, hatto ayrim so‘zlarni ham boshqasi bilan almashtirish yoki o‘rnini o‘zgartirish aslo mumkin emas. Zero, she’rdagi hamma narsa o‘z o‘rnida, joy-joyida. Undagi har bir misra o‘zi bir tiniq manzara bo‘lgani holda boshqalari bilan uzviy birlikda mayda detallarigacha aniq namoyon bo‘luvchi yorqin va go‘zal manzarani, yaxlit poetik obrazni hosil etadi.

Shoirning «Baxtlar vodiysi», «Chirchiq bo‘ylarida», «Daryo tiniq, osmon beg‘u bor» , «Chimyon esdaliklari», « o‘rik gullaganda» kabi she’rlarida ham yurt obrazi xalqqa muhabbat tuyg‘ulari bilan uzviy birlikda namoyon bo‘ladi.

Hamid Olimjon qaysi asarida O‘zbekiston yoki qardosh o‘lkalar haqida yozmasin, doimo hayot go‘zalliklaridan zavqlanib, hayajonlanib, yayrab-yashnab va erkanib yozadi. Shoir she’rlarining misralari g‘oyat ravon, so‘lim qo‘shiq singari o‘zi oqib kelaveradi.

Shoir she’rning har bir misrasiga, misraning har bir so‘ziga shunday yoqimli ohang beradiki, o‘qilganda go‘yo xushxon hofiz ijrosida dilrabo, so‘lim qo‘shiq tinglaganday bo‘lasiz. Shoir lirikasida bo‘rtib ko‘rinuvchi bu fazilatlar uning liro-epik asarlariga ham xosdir.

Darhaqiqat, Hamid Olimjon 30-yillarda turli mavzularda rang-barang lirik she’rlar yozish bilan birga, anchagina ballada va dostonlar ham yaratgan. Shoirning «Ikki qizning hikoyasi», «Zaynab va Omon» singari asarlarida lirika bilan epos xususiyatlari chambarchas bog‘lanib qo‘shilib ketgan va yaxshi badiiy natija bergan. Hamid Olim jon ijodida «Zaynab va Omon» dostoni, shubhasiz, katta o‘rin tutadi.

¹ ФИЛОЛОГИЯНИНГ УМУМНАЗАРИЙ МАСАЛАЛАРИ”ГА БАҒИШЛАНГАН РЕСПУБЛИКА МИҚЁСИДАГИ ИЛМИЙ – АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ. Тошкент “VNESHINVESTROM” 2020. 27-бет.

Unda shoir iste’dodining yangi qirralari va O‘zbek she’riyati imkoniyatlari cheksizligi yana bir bor namoyon bo‘ldi. Doston zamirida aniq hayotiy voqea yotadi. Asardagi Zaynab obrazining prototipi Buxoro viloyati G‘ijduvon tumanidagi jamoa xo‘jalik a‘zo laridan biri Zaynab Omonovadir.

«Zaynab va Omon» dostoni obraz yaratish, til va badiiy tasvir vositalaridan foydalanish jihatidan ham ustalik bilan ishlangan. Shoir xarakter yaratishda psixologik tahlil san’atidan m ohirona foydalangan. Sevgi «dardi»ga muhtalo bo‘lgan Zaynabning Omonga ilk sevgi maktubini yozishga intilishi tasvirlangan epizodni ruhiyat tahlili san’atining yaxshi namunasi desa bo‘ladi.

Shu sababli qiz, bir tom ondan, yurak rozini izhor etmasdan — sevgi maktubini yozmasdan turolmaydi. Ikkinchi tomondan, yigitga birinchi bo‘lib, o‘zining yurak sirini ochishdan or qiladi. Shoir Zaynab qalbidagi ana shu ikki tuyg‘u o‘rtasidagi kurashni mahorat bilan tasvirlab bergan:

Xulosa yakunida aytilgan “shoir ijodining umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tarilishi” va “zamonaviy o‘quv jarayonida ham yangicha yondashuvlar, ijodiy izlanishlar va chuqur tahlil uslublarini shakllantirishga xizmat qilishi” iboralari – Hamid Olimjon ijodining nafaqat o‘z davrida, balki bugungi kunda ham dolzarb va ahamiyatli ekanini ko‘rsatadi. Demak, shoir asarlarining o‘qilishi va o‘rganilishi davomida har bir avlod o‘z talqinlarini yaratishi, yangi ilmiy izlanishlarni boshlashi mumkin. Bu esa o‘zbek adabiyotining bardavom rivojida ijodkorning betimsol hissasi borligini yana bir karra tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbek folklorining jonkuyari. — «Sharq yulduzi» jurnali, 1959-yil, 12-son
2. Hamid Olimjon, Oygul bilan Baxtiyor. Toshkent 2017. 5-bet.
3. Mahbuba O‘razbayeva. XORAZM ADABIY MUHITIDA JALOLIDDIN MANGUBERDI OBRAZINING YARATILISHI. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/issue/view/82> 2024.05.03. 209-213-b. <https://uzresearchers.com/index.php/Conferences/article/view/2904/2844>.
4. Omanova, M. (2024). Nizomiy Ganjaviy merosining alisher navoiy ijodiga ta’siri. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 4(20), 24-27.
5. Kadirova M.N. Technological solutions and innovative digital tools. Netherlands. <https://staff.tiame.uz/storage/users/829/articles/nyOCfZLWmrPLJiMMJmugxLcoqGUmIvB9cP2PPxaq.pdf>
6. Omanova, M. (2024). Bahouddin Naqshband to‘g‘risidagi ma’lumotlar aks etgan asarlar. “O‘zbek adabiyotshunosligining dolzarb masalalari”. – Toshkent: 139-146.
7. Kalandarova, Dilafuz Abdujamilovna. "Research classification of Karl Reichl." *Current research journal of philological sciences* 2.11 (2021): 29-33.
8. Махбуба Қадамбоевна Ўразбаева. АЁЛ ХАРАКТЕРИНИ ОЧИШДА БАДИИЙ НУТҚНИНГ ЎРНИ. GOLDEN BRAIN. RAIN ISSN: 2181-41 20. 23.01.10. 193-199- 6. <https://researchedu.org/index.php/goldenbrain/article/view/1179>